

ERTAKLAR-YAXSHILIKKA YETAKLAR

Pardayeva Baxtiniso Baxtiyorovna

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ertak janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi, sehrlil, maishiy, hajviy eretaklarga bo‘linadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ertak, matal, varsaqi, cho‘pchak, uydirma, to‘qima, obraz, syujet, maishiy, sehrlil, hayotiy, xayoliy

FAIRY TALES LEAD TO GOODNESS

ABSTRACT

The genre of fairy tales is divided into fairy tales about animals, magic, household, comedy, according to the interpretation of images, ideological content and conflict, plot and composition, the place and function of fiction, language and style.

Keywords: Folklore, fairy tales, proverbs, parables, fables, fabric, image, plot, domestic, magic, life, fantasy.

Sog‘lom bolaning shakllanishida nafaqat jismonan sog‘lomlik, balki fikran sog‘lomlik ham mohiyatan bir maqsadga qaratilgan. Bolalarni sog‘lom fikrlilikka chorlash degani ana shu sog‘lom fikrlar haqida uqtirish emas, balki uni hayotga tadbiiq qilish orqali singdirishdir. Biz shundagina har tomonlama sog‘lom bolaning shakllanishida to‘g‘ri yondashgan bo‘lamiz. Xalq og‘zaki ijodi namunalari qadimiyligi, ta’sirchanligi bois bolalar tarbiyasida e’tiborli va ishonchli manbaalardan

hisoblanadi. Bu tarbiya vositalarini bolalar hayotiga tabiiy ravishda olib kirish lozim. Zangori ekran orqali namoyish etilayotgan “To‘g‘rivoy va Egrivoy”, “Zumrad va Qimmat”, “Sher ila Durroj”, “Sohibjamol qo‘g‘irchoq”, “Yo‘l va bolalar”, “Sumalak – ming bir tilak”, “Susambil”, “Hunarmand shahzoda”, “Farrux va Zumrad”, “Alpomish”³² kabi milliy multfilmlarimiz fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Ular mehnat, poklik, kattalarga hurmat kabi insoniy fazilatlarni bola qalbiga ekran orqali singdiradi.

Xalq og‘zaki ijodi – xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi. U xalq san‘atining boshqa turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san‘atidir. Har bir xalqning boy og‘zaki so‘z san‘ati bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham og‘zaki adabiyot durdonalari mavjud. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan ijod mahsulidir. Chunki ular bir kishining ongli faoliyati natijasida emas, butun bir jamoaning ijodi asosida vujudga keladi.³³

Tabiiyki, bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri, bu ertak tinglashdir. Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Ertaklarda insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stga sadoqat, yorga vafodorlik, shu yo‘lda qahramonlik, jasorat ko‘rsatish kabi fazilatlar ulug‘lanadi, zulm va zo‘rluk qoralanadi. Ertaklar bolalarda hayotga muhabbat uyg‘otadi, kelajakka umid ko‘zi bilan qarashga, yaxshi turmush, farovon hayot uchun kurashishga chaqiradi, yer yuzida adolat tantana qilishiga ishonch hosil qildiradi. Barchamizga ma‘lum ertaklardan misol keltirsak: “Sholg‘om” hamda “Uch og‘ayni botirlar” ertagi bolalarga kuch birlikda, ahillikda ekanligini uqtiradi. “Ur to‘qmoq”³⁴ ertagi esa halollikni ulug‘laydi.

“Ertaklar – yaxshilikka yetaklar”, deydi xalqimiz. Oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga hayot haqida bilim berish, o‘git-nasihat qilish, nutq o‘stirish, mehr-u e‘tiborini amalda ifodalash uchun ertaklar aytiladi. Bola ulg‘aya borgan sari ertaklarning hajmi kengayib, mazmuni va mundarijsi murakkablashib boradi. Ertaklar

³² Xalq og‘zaki ijodi

³³ “Yoshlik” jurnali 2005-yil, 5-son

³⁴ O‘zbek xalq ertaklari

ta'sirida farzandlarda hayotga muhabbat, oilaga, ota-onaga mehr, do'stu yorga sadoqat, kelajakka umid, yaxshilik va adolat tantanasiga ishonch hislari kamolga yetadi. Ota-onasi, buvi va bobolaridan, donishmand keksalardan eshitgan, kitoblaridan o'qigan ertaklarini eslab qolib, ularni qiziqarli va ta'sirchan qilib hikoya qilib beradigan odamni ertakchi deyish mumkin. Ertakchilar har bir ertakni tinglovchining diaqqtini tortib, uni mahliyo qiladigan holda taqdim etish uchun maxsus kirish, boshlama va tugallamadan foydalanadilar. Kirish qism ertakchi mahoratini namoyish qiladi, boshlama va tugallama esa ertakning yaxlitligini ta'minlash bilan birga unga sirlilik va an'anaviylik baxsh etadi.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrlil sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"³⁵ asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra, ertakni 2 guruhga — xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertaklar, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo'jizali, sehrlil; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-

³⁵ M.Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk"

hodisalar tasvirlanadi. Ertaklarda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida, ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o‘zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo‘lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad, pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuchqudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.³⁶

Ertak janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi, sehrlil, maishiy, hajviy eratlarga bo‘linadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy eraklardir. Majoziy eraklarning ("Susambil", "Bo‘ri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujeti asosida ko‘chma ma’no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxo‘rlilik bo‘ri orqali, ayyorlik va tilyog‘lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Sehrlil ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi ("Yalmog‘iz", "Semurg“, "Devbachcha", "Kenja botir" va boshqalar). "Quloqboy", "Handalak polvon", "Uch yolg‘onda qirq yolg‘on" va boshqalar eraklar komik, ba’zilar hatto hajviy xarakterga ega. Masalan, "Uch yolg‘onda qirq yolg‘on"da bosh qahramon xalq orasida shuhrat topgan kal bo‘lib, bu komik qahramonning "yolg‘on to‘qishi"dan zulm va jaholat, adolatsizlik kabi mavjud tuzumga xos illatlar qoralanadi, kishilardagi donishmandlik, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Maishiy eraklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi ("Uch og‘a ini botirlar", "Oygul bilan Baxtiyor", "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Zolim podsho" va boshqalar). Masalan, "Uch og‘a ini botirlar" ertagi odatdagidek ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs,

³⁶ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan.

Ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi. Ularda pand-nasihat, ibratli o‘g‘itlar birinchi o‘rinda turadi. Qaysi ertak turlariga murojaat qilmaylik, ularning tag zamirida, albatta, didaktik vazifa yetakchilik qiladi. Shu bois, ertaklarni xalqimiz “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” deya talqin qilishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: ((REFERENCES))

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent davlat ilmiy nashriyoti
2. Ensiklopedik lug‘at, 2 tomlik. O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, Toshkent, 19880
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Toshkent davlat ilmiy nashriyoti
4. O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild. Toshkent: O‘qituvchi, 2012- 384 b
5. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”
6. Олтин бешик: Эртақлар. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.- 256 б
7. Кулса-гул, йиғласа-дур: Эртақлар. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-304 б
8. Сув қизи: Фантастик эртақлар. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1966.- 328 б
9. www.ziyouz.com
10. www.hozir.org
11. www.wikipedia.org
12. www.google.com